UO‘K 327(560:515), 355(560:515)

YETTISHAHAR DAVLATINING USMONLI IMPERIYASI BILAN ALOQALARI

S.A. Sobirov

Maqolada XIX asr ikkinchi yarmida Yettishahar davlati va Usmonli imperiyasi o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlar o‘rganilgan. Xususan, diplomatik missiyalar, harbiy yordam va diniy aloqalar, ularning Yettishahar ichki siyosati, xalqaro mavqeyiga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, harbiy yordam, savdo almashinuvi bo‘yicha tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, ushbu munosabatlarning mintaqa barqarorligi va rivojlanishiga ta’siri ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *Yettishahar davlati, Qoshg‘ar amirligi, Usmonli imperiyasi, Yoqubbek, Sin sulolasi, “Katta o‘yin”, Sharqiy Turkiston, Sayyid Yoqubxon, Sulton Abdulaziz, Sulton Abdulhamid II*.

В статье исследуются политические, экономические и культурные отношения между государством Йэттишар («Семиградье») и Османской империей во второй половине XIX века. В частности, анализируются дипломатические миссии, военная помощь и религиозные связи, а также их влияние на внутреннюю политику и международный статус Йэттишара. Кроме того, проводится анализ исторических источников и научной литературы о военной помощи и торговом обмене, а также рассматривается влияние этих отношений на стабильность и развитие региона.

Ключевые слова: *Государство Йэттишар, Кашгарский эмират, Османская империя, Якуб-бек, династия Цин, «Большая игра», Восточный Туркестан, Саид Якуб-хан, Султан Абдул-Азиз, Султан Абдул-Хамид II.*

Kirish

XIX asrning o‘rtalari Markaziy Osiyo uchun muhim geosiyosiy o‘zgarishlar davri bo‘lib, aynan shu jarayonda Yoqubbek yetakchiligida Yettishahar davlati tashkil topdi. Bu yangi davlat Sharqiy Turkiston bo‘ylab alangalanib ketgan, 1864-yilda Sin sulolasi hukmronligiga qarshi uyushtirilgan, dunganlar boshlab bergan keng ko‘lamli qo‘zg‘olon natijasida vujudga keldi. Bu davlat Qoshg‘ar, Xo‘tan, Yorkend, Yangihisor, Oqsu, Kucha va Ko‘rla kabi muhim shaharlarni o‘z ichiga olgan edi.

1873-yilda Usmonli imperiyasi Yettishaharni rasmiy ravishda vassal davlat sifatida tan oldi va Yoqubbekni uning amiri etib tayinladi. Bu tan olish shunchaki ramziy emas, balki amaliy yordam shaklida ham namoyon bo‘ldi. Usmonli imperiyasi Yettishaharning harbiy salohiyatini mustahkamlash maqsadida mingdan ortiq qurol yetkazib berdi. Shuningdek, Qoshg‘arda Usmonli bayrog‘i hilpiray boshladi, bu esa ikki davlat o‘rtasidagi ittifoqning rasmiy belgisi sifatida qabul qilindi.

Yettishahar va Usmonli imperiyasi o‘rtasidagi munosabatlar ko‘p qirrali bo‘lib, siyosiy, harbiy va diniy jihatlarni o‘z ichiga olardi. Siyosiy jihatdan Yettishahar Usmonli imperiyasi tomonidan tan olinishi orqali o‘z suverenitetini mustahkamlash va tashqi tahdidlarga, xususan, Sin sulolasiga qarshi pozitsiyasini mustahkamlashga intildi. Harbiy jihatdan Usmonli imperiyasining yordami Yettishaharning mudofaa imkoniyatlarini oshirib, uni mintaqadagi beqarorlik sharoitida o‘z xavfsizligini saqlab qolishiga ma’lum bir vaqt oralig‘ida imkon yaratdi. Diniy jihatdan esa ikki davlat o‘rtasidagi umumiy sunniy islom e’tiqodi birlik va o‘zaro majburiyat hissini mustahkamladi. Usmonli sultoni xalifa sifatida Yoqubbek hukmronligini diniy jihatdan tasdiqlash orqali uning hokimiyatini qo‘llab-quvvatladi. Ushbu maqolada Yettishahar va Usmonli imperiyasi o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni, ularning siyosiy harakatlari, harbiy hamkorligi va diniy aloqalarini tahlil etish maqsad qilingan.

Material va tahlil usullari

Maqolada qo‘yilgan muammo “История Центральной Азии в османских документах. Том I. Политические и дипломатические отношения”, “Holy war in China: the Muslim rebellion and state

in Chinese Central Asia, 1864–1877”, “Rus işgali devrinde Osmanlı devleti ile Türkistan hanlıkları arasındaki siyasi münasebetler (1775–1875)”, “Уйгурское государство Йэттишар (1864–1877)” nomli manbalar asosida o‘rganilgan.

Muammoni tadqiq etishda qiyosiy tahlil usuli, analiz va sintez tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar va ularning muhokamasi

Yettishahar davlati va Usmonli imperiyasi o‘rtasidagi aloqalar haqida turk, rus va ingliz tillarida ko‘plab manbalar va ilmiy adabiyotlar mavjud bo‘lib, bu mavzu bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ham olib borilgan.

Dastlab mavzu yuzasidan ilk manbalarni ingliz va rus tillarida uchratamiz. Bunga misol qilib D.Ch.Boulgerning 1878-yilda yozilgan “Yoqubbek, Otaliq G‘ozi va Badavlat, Qoshg‘ar amirining hayoti” (The Life of Yakoob Beg, Athalik Ghazi and Badaulet, Ameer of Kashgar) asarini olishimiz mumkin. Bu asarda Yoqubbek hayoti va faoliyati, davlatining kelib chiqishi, Qoshg‘arning ijtimoiy-iqtisodiy holati, shu bilan birga Yettishahar davlatining xalqaro miqyosda olib borilgan munosabatlari haqida ma’lumot beriladi. Bundan tashqari, Yettishahar davlatiga savdogar, sayyoh va elchi sifatida kelgan ingliz josuslarining maktublari, esdaliklari va shartnomalarida ham muhim ma’lumotlar berilgan, bu to‘plangan ma’lumotlar asosida o‘sha davrda yevropalik tarixchilar, yozuvchilar ilmiy asarlar yaratishgan. G.Geyuord, T.Forsayt, G.Belyu, G.Trotter, G.Tomson kabi sayyoh va yozuvchilar shular jumlasidandir.

Kim Hodongning uzoq yillar davomida olib borgan tadqiqoti natijasida shakllangan asari “Xitoyda muqaddas urush: Xitoy Markaziy Osiyosida musulmon qo‘zg‘oloni va davlati, 1864–1877” (“Holy War in China: The Muslim Rebellion and State in Chinese Central Asia, 1864–1877”) mavzuni ochib berishda asosiy tadqiqotlardan hisoblanadi. Bu tadqiqot Sharqiy Turkiston tarixi, qo‘zg‘olonning kelib chiqishi, Yoqubbek davlatining shakllanishi, uning olib borgan ichki va tashqi siyosatini ilmiy manbalar, adabiyotlar va arxiv materiallariga tayangan holda batafsil ochib beradi. Yettishahar davlati va Usmonli imperiyasi o‘rtasidagi aloqalarga yetarlicha to‘xtalib o‘tgan.

Rus tilida mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar, manbalar, adabiyotlar ancha salmoqli bo‘lib, dastlabki manba sifatida A.N.Kuropatkinning “Kashgariya” asarini keltirish mumkin. “Kashgariya” tarixiy-geografik ocherk bo‘lib, davlatning harbiy qudrati, sanoati va savdosi haqida ma’lumotlar beradi.

Tarixchi D.A.Isiyevning “Yettishahar Uyg‘ur davlati” (Уйгурское государство Йэттишар) asarida Yettishahar davlatining tashkil etilishi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, Rossiya, Buyuk Britaniya va Usmonli imperiyalari bilan munosabatlari haqida so‘z boradi. A.D.Vasilyevning “Podshohdan bayroq va qilich. Markaziy Osiyo xonliklari va Usmonli imperiyasining siyosiy va madaniy aloqalari (XVI asr o‘rtalari – XX asr boshlari)” monografiyasida ham Qoshg‘ar bilan munosabatlar ochib beriladi. Yettishahar davlati va uning tashqi munosabatlari haqida V.Moiseyev, N.Xalfin, M.Basxanov va boshqa tadqiqotchilarning asarlarida ham berilgan.

Yettishahar davlatining Usmonli imperiyasi bilan aloqalari turk tadqiqotchilari tomonidan ham o‘rganilgan. Mehmet Sarayning “Rossiya bosqini davrida Usmonli davlati va Turkiston xonliklari o‘rtasidagi siyosiy aloqalar (1775–1875)” nomli kitobining III bobida Usmonli davlatining Yoqubbek bilan munosabatlari tadqiq etilgan.

Qozoq tarixchisi G.Charginovaning “Yettishahar davlati bilan Usmonli imperiyasining o‘zaro munosabatlari tarixidan” nomli maqolasida ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni arxiv materiallari va manbalarga tayangan holda yoritilgan.

Bu mavzu bo‘yicha ma’lumotlar o‘zbek tadqiqotchilarining kitoblarida ham uchraydi. A.Xodjayev va Sh.Qo‘ldoshevning “Muhammad Yoqubbek” nomli risolasida Otaliq G‘ozi Yoqubbek Badavlatning tarjimayi holi, faoliyati, tashqi aloqalari va uning avlodlari haqida so‘z yuritiladi. D.Urakovning “Turkiston general-gubernatorligining qo‘shni davlatlar bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalari” nomli monografiyasida Yoqubbekning Rossiya, Angliya bilan bir qatorda Usmonli imperiyasi bilan aloqalari yoritiladi. A.Mahkamov “Tariximizning siz bilmagan sahifalari: Xudoyorxon, Yoqubbek, Mirkomilboy” nomli risolasida Mirza Ahmad qushbegining xotiralarini keltirib, Yoqubbekning hayoti va uning qo‘shni davlatlar bilan munosabatlariga qisqacha to‘xtalib o‘tgan.

Yettishahar davlati va Usmonli imperiyasi o‘rtasidagi ilk aloqalarning paydo bo‘lishi XIX asrning o‘rtalariga borib taqaladi. 1853-yilda Rossiya Sirdaryo bo‘yida joylashgan, Qo‘qon xonligi chegarasidagi Oq Masjidni egallab, 1865-yilda Toshkentga qarshi keng ko‘lamli harbiy harakatni boshlash arafasida edi. Bu tahdidga duch kelgan Qo‘qon xonligi katta tanglikka tushib qoldi, qo‘shni Buxoro davlati esa bu vaziyatdan foydalanib, ilgari surgunda bo‘lgan Xudoyorxonni taxtga chiqardi. Ushbu tahdidlarga javob berish maqsadida Alimqul Sayyid Sultonxon nomidan yordam so‘rab Istanbulga elchi yuborish-

ga shoshildi. Bu elchi kelgusida Usmonli imperiyasi va Qoshg‘ar davlati o‘rtasidagi munosabatlarda muhim rol o‘ynagan Sayyid Yoqubxon (1823–1899) edi. 1865-yil boshlarida Sayyid Yoqubxon Istanbulga yetib keldi. Biroq, u hali sulton bilan uchrashishga ulgurmasdan, Toshkentning qulagani va Alimqulning vafot etgani haqidagi xabarni oldi. Bu uning asl missiyasini ma’nosiz qilib qo‘ydi. Ammo aynan shu paytda Qoshg‘arda Yoqubbekning faoliyati haqidagi hayratomuz yangiliklar Istanbulga yetib kela boshladi [1. B. 146–147].

Mehmet Sarayning, yozishicha Sayyid Yoqubxon Turkiston yetishtirgan eng malakali diplomatlardan biri edi. Sayyid Yoqubxon o‘z tashabbusi bilan Usmonli hukumatiga yangi iltimos bilan chiqdi: “Turkiston musulmonlarini og‘ir ahvoldan chiqarish uchun qo‘shimcha choralar ko‘rish zarur. Sulton hazratlarining farmonlari to‘liq sadoqat bilan bajariladi. Sizning xatingiz Islom davlatlari o‘rtasida birlikni mustahkamlash va tartibsizliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Qoshg‘ar mintaqasining mustaqil hukmdori Yoqubbek va Usmonli davlatiga bo‘ysunuvchi Xudoyorxonning har biriga Usmoniy oliy ordeni (nishoni) topshirilishi ularni nihoyatda quvontiradi. Bu masalada qilingan sa’y-harakatlar esa bizni nihoyatda mamnun etadi. Bundan tashqari, qurollarning modernizatsiyasi va harbiy holatni qayta tartibga solish orqali islom dinini mustahkamlash maqsadida: ikki dona ignali va ikki dona burama miltiq; namuna sifatida sizning armiyangizning oddiy askaridan tortib eng yuqori darajadagi zobitlarigacha kiyadigan rasmiy kiyimlardan bir to‘plam; shuningdek, Istanbuldan Iskandariyaga qadar menga hamroh bo‘ladigan 20 nafar shaxs uchun zaruriy kemada sayohat xarajatlari va boshqa yo‘l xarajatlarini to‘lash; Iskandariyada esa zarur yordam ko‘rsatish uchun Misr xadiviga va Bombey gubernatoriga ikkita tavsiya xatini yozish uchun yuqori darajadagi ruxsatingizni so‘rayman” [2. B. 82–83].

“Markaziy Osiyo tarixi Usmonli hujjatlarida” nomli arxiv hujjatlari to‘plamida 1868-yil 17-sentyabr sanasi bilan quyidagi ma’lumot keltiriladi: “Ma’lum bo‘ladiki, Qo‘qon hukumatining ilgari Istanbulga yuborgan elchilaridan biri yaqinda vatanga qaytganidek, boshqa elchi – Sayyid Yoqubxon ham bu safar vatanga qaytish istagini bildirib, olib kelgan maktubi va ba’zi sovg‘alarni topshirish jarayonida sulton hazratlari huzuriga qabul qilinishini va maktubga javoban sultonlik javob maktubi berilishini so‘radi. Shuningdek, Qoshg‘ar hokimi Yoqubbek va Xudoyorxonga bittadan Usmonli imperiyasining oliy ordeni (nishoni) berilishini, unga hamrohlik qilayotgan Lutfulloh Og‘a uchun ham sultonlik ordeni berilishini, Qoshg‘arda qurollarni yangilash va harbiy tizimni tartibga solish uchun namunaviy tarzda ikki dona ignali miltiq va ikki dona (burama) miltiq, shuningdek, askarlar va harbiy qo‘mondonlar kiyadigan rasmiy harbiy liboslardan bittadan to‘plam topshirilishini, Istanbuldan Iskandariyagacha bo‘lgan yo‘l xarajatlari qoplab berilishini hamda Iskandariyadan keyingi yo‘lda zarur yordam ko‘rsatilishi uchun Misr xadivi va Bombey hokimiga tavsiya xatlari yuborilishini so‘radi. Garchi bunday maktub va sovg‘alarni qabul qilish odatiy amaliyotga mos bo‘lsa-da, ayni paytda Qo‘qon hukumatining siyosiy holati noaniqligi sababli ular bilan rasmiy aloqa qilish maqsadga muvofiq deb topilmadi. Shuningdek, boshqa sabablar va tahlillar asosida: Sayyid Yoqubxon olib kelgan maktub va sovg‘alarni qabul qilish, sulton huzuriga chiqarish va orden berish maqsadga muvofiq emasligi haqida qaror chiqarildi, shunga qaramay, namunaviy tarzda ikki dona ignali va ikki dona (burama) miltiq hamda askarlar va qo‘mondonlar uchun harbiy kiyimlardan bittadan to‘plam topshirilishi, shuningdek, Sayyid Yoqubxonga 75000 kurush miqdorida sultonlik hadyasi berilishi haqidagi sultonning oldingi farmoni o‘z kuchida qoldi. Ushbu mablag‘ Davlat xazinasi hisobidan to‘lanishi belgilandi. Misr xadivi va Bombey hokimiga tavsiya xatlarini rasmiylashtirish va topshirish masalasi esa sulton hazratlari farmoniga binoan amalga oshiriladi. Mazkur topshiriqlarning zudlik bilan bajarilishi uchun sulton hazratlarining oliy farmoni kutiladi” [3. B. 240].

Qiziq tomoni shundaki, Usmoniylar va Qoshg‘ar o‘rtasidagi diplomatik aloqalar Sayyid Yoqubxonning shaxsiy tashabbusi bilan boshlangan, holbuki, uning Qo‘qondan yuborilgan rasmiy elchi sifatidagi vazifasi Alimqulning vafoti bilan yakunlangan edi. Nega u bunday vazifani o‘z zimmasiga oldi? Uning Yoqubbek bilan qarindoshligi, albatta, e’tibordan chetda qolishi mumkin emas. Ammo uning o‘zi miltiqlar va harbiy formalar namunalari so‘rashining sababini “Markaziy Osiyoda harbiy jihozlar va tuzilmani takomillashtirish yo‘li bilan Islomni mustahkamlash” deb izohlaganini eslash kerak. Rossiya bosqiniga qarshi kurashda u Markaziy Osiyo davlatlarini yangi qurollar va Usmonli imperiyasining yordami bilan harbiy tizimni isloh qilish orqali kuchaytirish zarur deb hisoblagan. Uning bu boradagi yondashuvlari, ehtimol, Istanbulda uch yil davomida yashab, Tanzimat islohot harakati a’zolari va Panislomiy koalitsiyani targ‘ib qilgan Yosh turklar mafkurasi bilan tanishganligi tufayli shakllangan bo‘lishi mumkin. 1869-yil bahorida Yoqubxon Qoshg‘arga safar qilib, Yoqubbekni Usmoniy sultonning hokimiyatini tan olishga shaxsan undadi. Ammo Yoqubbek dastlab bu taklifga qiziqish bildirmadi. Shunga qaramay, Yoqubxon o‘zining Istanbulga safari sabablari va u yerda kimlar bilan uchrashganini tushuntirib, bu masalada qat’iyat bilan davom etdi [1. B. 147].

Mullo Muso Sayramiy asarida Sayyid Yoqubxon faoliyati haqida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: "Toshkent ruslar tomonidan bosib olinganidan so'ng ulamolar va sayyidlar: "Endi bu yerlar bizga taqiqlandi", deb e'lon qilib, Rossiyaga bo'ysunishdan bosh tortishdi. Buning o'rniga ular ibodat yo'lidagi an'analarga ergashib, Muqaddas zaminga hijrat qilishni ma'qul ko'rishdi. Men ham hijrat qilishga qaror qildim va avval ikki muqaddas shahar (Makka va Madina)ni ziyorat qildim, so'ngra bir necha kun Rumda (ya'ni Usmonli imperiyasida – *S.S.*) qoldim. U yerda men obro'li kishilar va asilzodalar bilan uchrashdim... Toshkent hududi ruslar tomonidan egallangan bo'lsa-da, imperator (Xitoy imperatori – *S.S.*) yurtida ba'zi musulmonlar qo'zg'olon ko'tardilar, g'alaba qozonib, islomni yoydilar. Janobi oliylari xalifa bu xabarni eshitganida barcha masjidlarda salavot va Qur'on tilovatidan so'ng musulmonlarning sharqda g'alaba qozonishlari uchun duolar qilishni buyuruvchi farmon chiqardi. Xalifa o'zi ham birinchi bo'lib musulmonlarning muvaffaqiyati uchun duo qildi... Usmonli imperiyasi, ya'ni Rum xalifaligi va musulmonlarning himoyasi tashkil etilganidan beri yer yuzidagi musulmonlar yuksalganida, xalifa bundan xursand bo'lib, ularning muvaffaqiyatlari uchun duo qilgan. Agar u ularning mag'lubiyatlari haqida eshitsa, qayg'uga tushib, ularning yaxshiligi uchun duo qilgan. Musulmonlarning qo'zg'olonlari haqidagi barcha xabarlarni yozib, e'lon qilgan... Bu Mo'g'uliston yeri Janobi oliylari (Yoqubbek – *S.S.*)ga tegishli edi va xalifaga bu haqda xabar berish siz uchun nafaqat zarur, balki vojibdir". [4. B. 242].

Dastlab Yoqubbek Usmonli imperiyasi bilan aloqa o'rnatishga qiziqish bildirmagan bo'lsa-da, keyinchalik Rossiya imperiyasi va Buyuk Britaniya imperiyasidan har jihatdan yordam olish imkoniyatlari chegaralanganini hisobga olib, o'z rejalarini o'zgartirdi. 1871-yilda Yoqubbek o'z davlati uchun Rossiyadan kelayotgan xavfni birinchi marta aniq his qildi. Aynan o'sha yili Rossiya G'uljani o'z tasarrufiga oldi. Bunday tahdidga qarshi qanday choralar ko'rish lozim edi? Angliya bilan ittifoq tuzishmi yoki Rossiya bilan murosaga kelishmi? Bu masalada eng yaxshi yo'lni unga uzoq yurtlarni kezgan Sayyid Yoqubxon To'ra ko'rsatdi. Sayyid Yoqubxonning aynan shu tajribasi Yoqubbek uchun nihoyatda zarur edi. U qancha izlamasin, og'ir sinovlarni bosib o'tgan safdoshlari orasida Sayyid Yoqubxon To'raga teng keladiganini topa olmadi. Shu sababli Yoqubbek jiyanini o'z xizmatiga oldi, Sayyid Yoqubxon ham bundan xursand bo'lib, Usmonli imperiyasida mehmon bo'lib yashash o'rniga diplomatik faoliyatga kirishdi [5. B. 171].

Yoqubbekning o'z pozitsiyasini o'zgartirishiga sabab bo'lgan yana bir omil Usmonli imperiyasidan harbiy maslahatchilar va qurol-yarog' ta'minoti shaklida moddiy yordam olish imkoniyati edi. Sin sulolasi bilan kelajakdagi qarama-qarshilikka tayyorgarlik ko'rish uchun o'z armiyasini zamonaviy qurollar, miltiq va to'plar bilan ta'minlashi zarur edi. U ushbu qurollarni qo'lga kiritish uchun tinimsiz harakat qilgan bo'lsada, bu urinishlar amaliy jihatdan yetarli natija bermadi. Britaniyadan katta hajmdagi importni kutish qiyin edi, chunki ular Rossiyaning salbiy munosabatidan cho'chib, harbiy jihozlarni ochiq yetkazib bera olmasdi. Ruslar esa uning davlatiga nisbatan dushmanlik munosabatidan voz kechmagan edilar. Yoqubbek Afg'oniston yoki Hindistondagi xususiy savdogarlar kabi boshqa manbalarni ham sinab ko'rdi, lekin import hajmi uning ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli emas edi. Shu nuqtayi nazardan Usmonli imperiyasi qurollarni olish uchun yaxshi muqobil manba bo'lishi mumkin edi [1. B. 149].

Kuropatkinning yozishicha, Yoqubbek asosan o'qotar qurollar va zambaraklarga muhtoj edi. Fitilli miltiqlar mustaqil xonliklardan keltirilar yoki mahalliy ustaxonalarda ishlab chiqarilardi. 1868-yilgacha u faqat oz miqdorda miltiq hamda ov qurollariga ega edi. Uning artilleriyasi esa bundan ham zaif holatda edi [6. B. 160].

Yoqubbekning buyrug'iga binoan, Sayyid Yoqubxon 1872-yil oktyabr oyida Istanbulga elchi sifatida Qoshg'ardan jo'nab ketdi. Avval u Hindistonga yo'l oldi va Kalkuttada vitse-qirol bilan uchrashib, keyingi bahorgacha u yerda qoldi. U Hindiston hukumati yuqori martabali amaldorlari bilan uchrashib, Britaniya bilan do'stona munosabatlarni rivojlantirishni targ'ib qildi [1. B. 151]. Shundan so'ng Sayyid Yoqubxon Turkiyaga yo'l oldi va u yerda Yoqubbek nomidan turk sultoni Abdulazizni barcha musulmon xalqlarning oliy rahbari – xalifa sifatida tan oldi. Sulton bunga javoban Yoqubbekni "Qoshg'ar amiri" unvoni bilan taqdirladi [7. B. 42].

Bu haqda Usmonli arxiv hujjatlari to'plamida batafsil ma'lumot beriladi. Ulardan biri 1873-yil 27-may sanasiga oid bo'lib, unda Qoshg'ar yurtidagi ko'plab musulmonlarning hukmdori Yoqubbek Sayyid Yoqubxonni elchi sifatida yuborgani va uning maqsadi "bo'ysunish munosabatini" o'rnatish ekani haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, elchi keltirgan maktub tarjima qilinib, sultonga taqdim etilgani qayd qilgan. Sayyid Yoqubxonga sulton Abdulaziz huzurida qabulda bo'lishga ruxsat berilgan [3. B. 251–252]. To'plamda 1868-yil 17-iyun sanasi bilan quyidagi ma'lumot keltiriladi. "Qoshg'ar hukmdori o'zining va o'z boshqaruvi ostidagi xalqi nomidan elchisi Usmonli imperiyasi huzuriga sodiqlik va itoat rishtalarini bog'lash maqsadida maxsus noma bilan Istanbul shahriga tashrif buyurgan edi. Endi esa Yoqubxon

vatanga qaytishni rejalashtirmoqda. Hurmatli hukmdorning diniy birlik va islomiyat yo‘lida ko‘rsatgan fidoyiligi, amalga oshirgan ishlarining natijalari va ulkan yutuqlari shunday buyuk martabaga loyiqdirki, unga shon-shuhrat va hurmatni bildiruvchi eng yuqori darajadagi “Usmoniy nishoni” hamda qiymati ikki yuz ming kurush bo‘lgan qimmatbaho qilich sovg‘a qilinishi ko‘zda tutilgan. Shuningdek, Yoqubxonning safardagi xarajatlari uchun yuz ming kurush mablag‘ ajratilishi ham mo‘ljallangan. Bularning barchasi hukmdorning odatdagi mehribonligi va saxovati ifodasi sifatida ko‘rilmoqda” [3. B. 254–255]. Boshqa bir hujjatda esa Qoshg‘ar hukmdoriga hadya va tuhfa sifatida yuborilgan to‘p va miltiqlardan foydalanish uslubi hamda saltanat armiyasi tomonidan harbiy sohada erishilgan yutuq va intizomni Qoshg‘ardagi askarlarga o‘rgatish va tushuntirish uchun ikki nafar malakali zobitni Qoshg‘ar elchisi bilan birga yuborish Yoqubxon tomonidan so‘ralgan. Shuningdek, Shohona Harbiy maktabni shu yil tamomlagan ikki nafar ikkinchi darajali leytenant Yoqubxonning safariga qo‘shilish istagini bildirgan va bu masala qo‘mondonlik tomonidan tasdiqlangan [3. B. 257].

Sayyid Yoqubxon va uning hamrohlari 1873-yil 14-avgustda yoki shu sanadan ko‘p o‘tmay Istanbuldan chiqib ketishgan. Ular Misr orqali Bombeyga yetib kelishgan. U yerdan Hindiston hukumati tomonidan taqdim etilgan kuzatuv bilan Shohidullo chegara postiga borishgan va u yerda T.D.Forsayt boshchiligidagi Britaniya elchixonasi vakillari ularga qo‘shilgan [1. B. 152].

1873-yilda Usmonli imperiyasining javob elchixonasi Qoshg‘arga yetib keldi va katta hurmat bilan kutib olindi. Elchilik kelganini nishonlash uchun 100 ta to‘pdan salyut otildi. Elchilik bilan birga Yoqubbekka quyidagilar topshirildi: Kruppda ishlab chiqarilgan 6 ta to‘p, 1000 ta eski namunadagi miltiq, 200 ta yangi namunadagi miltiq, zaruriy harbiy aslahalar va o‘q-dorilar, porox ishlab chiqarish uchun zarur vositalar va qurolsoz ustalar. Bundan tashqari, to‘rt kishidan iborat harbiy instruktorlar missiyasi yuborildi: Missiya boshlig‘i – kapitan Ali Kozim Bey, piyoda qo‘shinlar ofitseri – Mehmed Yusuf Bey, otliq qo‘shinlar ofitseri – Cherkes Yusuf Bey, artilleriya ofitseri – Ismoil Haqqi Bey va yana to‘rt nafar iste’fodagi ofitser. 1873-yilda ingliz harbiy missiyasi tarkibida Qoshg‘arga kelgan ingliz ofitseri Belyu turk instruktorlarining Qoshg‘arda mavjudligi haqida xabar bergan. Missiya Usmonli elchixonasi bilan bir vaqtda Qoshg‘arga yetib kelgan. Missiya rahbari T.D.Forsaytning xabar berishicha, Yoqubbek Turkiya bilan aloqalar rivojlanishidan mamnun bo‘lgan [8. B. 241].

Ko‘p o‘tmay Yoqubbek o‘zini “amir al-mo‘minin” deb e’lon qildi, juma namozidan keyin Usmoniy sulton nomiga xutba o‘qishni hamda tangalar zarb etishini buyurdi. Bu esa Usmoniy sultonni oliy hokimiyat egasi sifatida rasman tan olganini bildiruvchi e’lon edi. Shuni unutmaslik kerakki, Yoqubbekning Usmoniy sulton hokimiyatini tan olishi faqat rasmiy jihatdan bo‘lib, usmoniylar Qoshg‘ar ishlariga aralasha oladigan holatda emas edi. Shunga qaramay, bu nominal hokimiyatni tan olish ikki davlat manfaatlariga mos kelgani uchun qabul qilindi. Sultonning hokimiyatini tan olish Yoqubbek uchun ham foydali edi, chunki bu nafaqat uning fuqarolari, balki xalqaro hamjamiyat tomonidan ham uning mamlakat hukmdori sifatidagi maqomini tasdiqladi. Bundan tashqari, u o‘zi izlagan harbiy jihozlarni olishga muvaffaq bo‘ldi [1. B. 153].

Ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik aloqalar 1875-yilda Sayyid Yoqubxonning Istanbulga qilgan ikkinchi safari davomida yanada rivojlandi. Bu safar uning asosiy maqsadi Yoqubbekning sultonga samimiy minnatdorligini yetkazish edi. Qoshg‘ardan kelgan elchining tashrifi 1875-yil 23-aprelda qayd etilgan va Yoqubbekning maktubi tarjima qilinib, sultonga taqdim etilgan. Elchi 7-may kuni sulton huzurida qabulda bo‘lgan. Ushbu maktubda Yoqubbek avvalo sultonning farmoni va turli sovg‘alarning taqdim etilishi nafaqat uning uchun, balki barcha Qoshg‘ar aholisi uchun katta sharaf ekanini ta’kidlagan, bu voqeani nishonlash marosimini qanday o‘tkazgani haqida xabar bergan. Keyin esa sultonning bu e’tiborini hayotining oxirigacha unutmaslikka va uning har qanday buyrug‘ini bajarishga qasamyod qilgan [1. B. 153].

Ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash maqsadida Usmonli hukumati ko‘plab qurollar va sovg‘alarni taqdim etishga qaror qildi. Usmonli imperiyasidan Yettishahar davlatiga 2000 dona miltiq, 6 dona to‘p, qimmatbaho soat, shohona kiyim va o‘q-dorilar yuborildi [3. B. 273–274]. Bular bilan bir qatorda Sayyid Yoqubxon uchun safar xarajatlari ajratildi, Yoqubbekning ikki o‘g‘li – Bekquli va Haqquliga birinchi va ikkinchi darajali “Mejidi” ordenlari topshirildi. Shuningdek, imperatorning rajab oyi 15-kuniga (17-avgust) tegishli farmoni topshirildi. Yoqubbek o‘zining to‘ng‘ich o‘g‘li Bekqulini valiahd etib tayinlashni so‘ragan edi. Sulton bu iltimosni uchta shart asosida tasdiqladi: xutba o‘qish va tanga zarb etish sulton nomiga davom ettirilishi, Yoqubbekka ilgari taqdim etilgan Usmonli imperiyasi bayrog‘ining shakli va rangi o‘zgartirilmasligi, Yoqubbek qo‘shni davlatlar bilan ortiqcha mojarolarga kirishmasligi ta’kidlandi [1. B. 154].

Bu missiya haqida G.Charginova arxiv ma’lumotlariga tayangan holda quyidagi ma’lumotni beradi. Usmonli imperiyasidan Qoshg‘arga qaytgan Sayyid

Yoqubxon o‘zi bilan ko‘plab qurol-yarog‘larni olib keldi. Shuningdek, u bilan birga bir necha turk harbiy instruktorlari va qurolsoz ustalari ham yetib keldi. Sayyid Yoqubxonning ukasi va 1875-yilgacha Yettishahar harbiy omborining boshlig‘i bo‘lgan Komilxonning ma’lumotlariga ko‘ra, u Istanbuldan 2200 dona pistoni bor miltiq, 8 ta zambarak va 2 tonna portlovchi modda olib kelgan. 8 zambarakning oltitasi Usmonli sultoni, ikkitasi esa Misr hukmdori nomidan sovg‘a qilingan. Bu zambaraklar yengil bo‘lib, har birini bitta otga ortib tashish mumkin bo‘lgan [9. B. 52]. Sulton Yoqubbek huzuriga qurol-yarog‘ bilan birga harbiy mutaxassislardan iborat bir necha kishini ham yuboradi. Ular qatorida kelgan Zamonbek keyinchalik Turkiston general-gubernatori devonxonasiga tilmoch bo‘lib ishga o‘tgan edi [10. B. 40]. Bu elchilik missiyasi Usmonli imperiyasidan katta harbiy yordam olishga muvaffaq bo‘ldi.

1876-yil 30-may kuni Sulton Abdulazizning vafotidan keyin Murod V Usmonli davlatining yangi sultoni bo‘ldi. Ammo u sog‘lig‘i yomonlashgani sababli qisqa muddat ichida taxtdan tushirilib, 1876-yil 31-avgustda Abdulhamid II davlat tepasiga keldi. Yoqubbek Usmonli davlati bilan o‘rnatgan yaxshi aloqalarni Abdulhamid II davrida ham davom ettirishni istadi. Shu sababli sulton Abdulhamidga maktub yo‘llab, o‘zi va xalqi unga bo‘ysunishini bildirdi. Keyinchalik Istanbulga elchilik missiyasi yuborib, Yettishahar xalqining yangi Usmonli imperiyasi sultoniga yaxshi niyatlarini izhor qildi. Shunday qilib, Usmonli imperiyasi va Yettishahar davlatlari o‘rtasidagi munosabatlar avvalgidek davom etdi. Biroq, ko‘p o‘tmay, bu aloqalarning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan turli omillar paydo bo‘la boshladi [11. B. 490].

Sin imperiyasi uchun Sharqiy Turkiston strategik ahamiyatga ega edi. Shu sababdan, vaqtinchalik muvaffaqiyatsizlikdan so‘ng, musulmon davlatini yo‘q qilish rejalari ishlab chiqildi. Jung‘oriyani to‘liq egallagach, xitoyliklar 1877-yil yanvarida Yoqubbek davlati chegaralariga yetib keladi. Bu vaqtda Yettishaharda vaziyat ancha og‘ir edi. Ikkinchi tomondan lashkarboshilar va Badavlat (Yoqubbek) o‘rtasida turli nizolar ham avj olgan edi. Shuning uchun ham yaxshi qurollangan ko‘p sonli Sin armiyasiga qarshi turolmadilar. Shunday og‘ir bir vaziyatda 1877-yil 17-may kuni Ko‘rla shahridagi yozgi qarorgohida Yoqubbek sirli ravishda vafot etadi. Uning o‘limidan so‘ng vorislari va yaqinlari o‘rtasida taxt uchun kurash boshlanib ketadi [12. B. 77].

Yoqubbek vafotidan keyin taxtga uning katta o‘g‘li Bekqulibek chiqdi, u otasining siyosatiga ergashgan holda, Usmonli imperiyasi bilan aloqalarni davom ettirish maqsadida maktub yo‘llaydi. 1877-yilda Usmonli imperiyasi va Rossiya imperiyasi o‘rtasida katta urush boshlandi. Shu sababli, Usmonli imperiyasi Bekqulibekka ittifoqchi sifatida yordam jo‘natolmadi. Ikki davlat o‘rtasidagi masofa olisligi ham bunga yo‘l qo‘ymadi. Buyuk Britaniyaning Yettishaharni saqlab qolishda Pekin bilan olib borilgan muzokaralari ham natija bermadi. Yoqubbekning vafot etishi va davlatda kelib chiqqan ichki nizolar manjur sinlarining qayta hujum qilish xavfini yanada kuchaytirdi. Ayniqsa, general Szo Szuntan Sharqiy Turkiston hududini to‘la bosib olish tarafdori edi. U o‘z fikrini isbotlash maqsadida manjurlar saroyidagilarga quyidagilarni bayon etdi: 1) dengiz tomondan kelganlar uzoqda joylashgan davlat vakillari, ular oldida chekinishimiz va vaqtincha ularga ba’zi bir yerlarimizni berishimiz mumkin; bir kun kelib ularning vatanida ham yong‘in bo‘lishi mumkin, u holda ular bizning yerlarimizni tashlab ketishi muqarrar; 2) Sharqiy Turkiston Rossiya ta’siri ostidagi Turkiston va Angliyaga qaram bo‘lib qolgan Hindiston bilan chegaradosh; agar biz katta xarajat va talafotlarga qaramay, bu o‘lkani qaytadan qo‘lga kirita olmasak, uning hududi mana shu ikki yirik davlat qo‘liga tushib qolishi mumkin; unda biz asrlar davomida Xitoyni g‘arb bilan bog‘lab turgan savdo yo‘llari o‘tgan muhim strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘lkadan abadiy mahrum bo‘lamiz; 3) Sharqiy turkistonliklar o‘rta osiyoliklar bilan birlashib, yirik kuchga aylanishi va Xitoyning Gansu, Shenshi kabi g‘arbiy o‘lkalariga xavf tug‘dirishi mumkin; bu haqda o‘tmishda yashagan yirik davlat arboblari vasiyat qilgan [13. B. 77–78]. 1877-yil oxiriga kelib, Qoshg‘ar shahri egallandi, 1878-yil boshida esa Yettishahar davlati barcha shaharlari manjurlar tomonidan to‘la ishg‘ol qilindi. Shu tariqa Usmonli imperiyasi va Yettishahar davlati aloqalari yakun topdi.

Xulosa

XIX asrning ikkinchi yarmida Sharqiy Turkistonda Yettishahar davlatining shakllanishida va uning yirik davlatlar bilan olib borgan siyosatida Usmonli imperiyasining ishtiroki muhim ahamiyat kasb etdi. Bu aloqalar dastlab Qo‘qon elchisi sifatida Istanbulga tashrif buyurgan Sayyid Yoqubxon To‘ra tashabbusi bilan kelib chiqdi. U 1865-yilda Istanbulga kelganida Toshkent shahri ruslar tomonidan egallab olingani haqida xabarlar yetib keldi, bu esa uning missiyasini ma’nosiz qilib qo‘ydi. Lekin shu orada Yoqubbekning Sharqiy Turkistonda olib borgan muvaffaqiyatli yurishlari haqidagi xabarlar tufayli Yoqubxonda Usmonli hukumati bilan aloqalarni o‘rnatish fikri tug‘ildi. Natijada Sayyid Yoqubxonning mohirona olib borgan

sa'y-harakatlari tufayli Usmonli imperiyasi bilan ilk aloqalar yo'lga qo'yila boshlandi. 1873-yilda Usmonli imperiyasi tomonidan Yettishaharning tan olinishi uning xalqaro maydondagi qonuniyligini mustahkamlashda muhim rol o'ynadi. Shu bilan birga, Istanbuldan berilgan harbiy yordam Yettishaharning tashqi tahdidlarga qarshi turish qobiliyatini oshirdi. Biroq Sin sulolasining bosqinchilik siyosati va Usmonli imperiyasining o'z strategik ustuvorliklarini o'zgartirishi kabi geosiyosiy omillar Yettishaharning tanazzuliga olib keldi. Xulosa qilib aytish mumkinki, Yettishahar Usmonli imperiyasi bilan aloqalaridan unumli foydalanib, o'zini mustaqil siyosiy subyekt sifatida shakllantirishga harakat qilgan. Mingdan ortiq qurol va Usmonli harbiy instruktorlarining mavjudligi Yettishahar armiyasini modernizatsiya qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, bu aloqalar Yettishaharning islomiy qadriyatlarini mustahkamlash va musulmon dunyosiga yaqinlashishiga yordam berdi. Biroq uzoqdan muntazam harbiy yordam olishning qiyinligi va Usmonli imperiyasining aniq hamkorlik rejasiga ega emasligi Yettishaharni tashqi kuchlarga bog'liq qilib qo'ydi. Oxir-oqibat, harbiy islohotlar va mustaqillikni mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakatlarga qaramay, Yettishahar Sin imperiyasi armiyasi bosqiniga bardosh bera olmay, 1877-yilda qaytadan egallab olindi. Usmonli imperiyasi Rossiya bilan urush holatida bo'lganligi va mag'lubiyatga uchraganligi sababli Yettishahar davlatini saqlab qolish imkoniga ega bo'lmadi.

Adabiyotlar:

1. *Hodong Kim*. Holy war in China: the Muslim rebellion and state in Chinese Central Asia, 1864–1877. – Stanford, California: Stanford University Press, 2004. – 315 p.

2. *Saray M*. Rus işgali devrinde Osmanlı devleti ile Türkistan hanlıkları arasındaki siyasi münasebetler (1775–1875). – Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi, 2017. – 200 s.

3. История Центральной Азии в османских документах. Том I. Политические и дипломатические отношения Самарканд: Международный институт центральноазиатских исследований (МИЦАИ): Турецкое общество архивистов (TOA), 2011. – 310 с.

4. Musa Sayrami; translated by Eric Schluessel. The tarikh-i ḥamidi: a late-Qing Uyghur history. – New York: Columbia University Press, 2023. – 476 p.

5. *Boulger D.C*. The life of Yakoob-Beg: Athalik Ghazi and Badaulet, Ameer of Kashgar. – London: W.H. Allen & Co., 1878. – 344 p.

6. *Куропаткин А.Н*. Кашгария: историко-географический очерк страны, ее военные силы, промышленность и торговля. – Санкт-Петербург: Типография В.С.Балашева, 1879. – 435 с.

7. *Исиев Д.А*. Уйгурское государство Йэттишар (1864–1877). – Москва: Наука, 1981. – 91 с.

8. *Васильев А.Д*. «Знамя и меч от падишаха». Политические и культурные контакты ханств Центральной Азии и Османской империи (середина XVI – начало XX вв.). – Москва: Институт востоковедения РАН, 2014. – 356 с.

9. *Чаргынова Г*. Жетішаһар мемлекеті мен Осман империясының өзара байланыстары тарихынан. // ҚазҰУ Хабаршысы. Тарих сериясы, 2017. – № 3(86). – С. 47–55.

10. *Маҳкамов А*. Тарихимизнинг сиз билмаган саҳифалари: Худоёрхон, Ёқуббек, Миркомилбой. – Тошкент: Zamin nashr, 2021. – 74 б.

11. Sefa Fuat H., Charginova G. Osmanli devleti ile Yedişehir devleti (Kaşgar emirliği) arasinda ilişkiler. // History Studies. International Journal of History, 2023. – No 3. – Pp. 481–495.

12. *Ураков Д.Ж*. Туркистон генерал-губернаторлигининг қўшни давлатлар билан сиёсий ва иқтисодий алоқалари. – Тошкент: Lesson press, 2021. – 213 б.

13. *Ходжаев А., Қўлдошев Ш.* Муҳаммад Ёқуббек. – Тошкент: Наврўз, 2021. – 112 б.

RELATIONS BETWEEN THE STATE OF YETTISHAR AND THE OTTOMAN EMPIRE

Sardorbek A. Sobirov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 7(83). 37-45.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: State of Yettishar, Kashgar Emirate, Ottoman Empire, Yakub Beg, Qing Dynasty, "The Great Game", East Turkestan, Sayyid Yaqubxon, Sultan Abdulaziz, Sultan Abdulhamid II.

This article provides an in-depth analysis of the political, military, and religious relations between the state of Yettishar and the Ottoman Empire. In 1873, the Ottoman Empire officially recognized this state and declared Yakub Beg as its ruler. Following this recognition, military aid was delivered to Yettishar, with over a thousand weapons supplied by the Ottoman Empire. This diplomatic move was not merely symbolic but also played a practical role in strengthening the military capabilities of Yettishar.

The article examines various aspects of the relationship between Yettishar and the Ottoman Empire – political, military, and religious. The recognition of Yettishar by the Ottoman Empire granted it significant status on the international stage and served as diplomatic support in its struggle against the Qing dynasty. Militarily, Ottoman instructors and weapons contributed to enhancing Yettishar's defense capacity. Religiously, the Ottoman sultan, as the caliph, legitimized Yakub Beg's authority, thereby reinforcing the religious unity of Yettishar's population.

Additionally, the article analyzes sources in multiple languages, historical documents, and modern research. Works of English, Russian, and Turkish scholars have been utilized to provide an objective examination of historical events. Notable studies such as D.C. Boulger's "The Life of Yakoob Beg, Athalik Ghazi and Badaulet, Ameer of Kashgar" and Kim Hodong's "Holy War in China: The Muslim Rebellion and State in Chinese Central Asia, 1864-1877" are thoroughly reviewed in the article.

One of the key issues explored in this article is the diplomatic mission of Sayyid Yaqubxon. In 1865, he traveled to Istanbul as a representative of the Kokand Khanate, but due to shifting political circumstances within the khanate, his diplomatic role transitioned toward representing Yettishar. In 1872, Sayyid Yaqubxon, as Yettishar's envoy, went to Istanbul and announced, on behalf of Yakub Beg, the recognition of the Ottoman Sultan Abdulaziz as the caliph of the Muslim world. In return, the Ottoman Empire acknowledged Yakub Beg as the "Amir of Kashgar" and began providing him with military assistance.

The article details the military aid, weapons, and instructors sent by the Ottoman Empire to Yettishar in 1873. Specifically, six cannons, over 1,200 rifles, military uniforms, and gunpowder manufacturing equipment were delivered. In response, Yakub Beg issued a decree to recite the *khutbah* (sermon) in the name of the Ottoman sultan and mint coins bearing his name, further solidifying Yettishar's close ties with the Ottoman Empire.

However, in 1877, the death of Yakub Beg and internal conflicts within the state paved the way for the Qing dynasty's army to reclaim Yettishar. By 1878, the state of Yettishar was completely conquered by the Qing dynasty, leading to the termination of its diplomatic ties with the Ottoman Empire.

References:

1. Hodong, Kim. (2004). Holy war in China: the Muslim rebellion and state in Chinese Central Asia, 1864–1877. Stanford, California: Stanford University Press.

2. Saray, M. (2017). *Rus işgali devrinde Osmanlı devleti ile Türkistan hanlıkları arasındaki siyasi münasebetler (1775-1875)* [Political Relations Between the Ottoman Empire and the Turkestan Khanates During the Russian Occupation Period (1775-1875)]. Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi.

3. Mustafayev, Sh., Serin, M. (ed.). (2011). *Istoriya Centralnoj Azii v osmanskih dokumentah. Tom 1. Politicheskie i diplomaticheskie otnosheniya* [The History of Central Asia in Ottoman Documents. Vol. I.

Political and Diplomatic Relations]. Samarkand: International Institute for Central Asian Studies (IICAS): Turkish Society of Archivists (TSA)

4. Musa Sayrami translated by Eric Schluessel. (2023). The tarikh-i ḥamidi: a late-Qing Uyghur history. New York: Columbia University Press.

5. Boulger, D.C. (1878). The life of Yakoob-Beg: Athalik Ghazi and Badaulet, Ameer of Kashgar. London: W.H. Allen & Co.

6. Kuropatkin, A.N. (1879) *Kashgariya: istoriko-geograficheskij ocherk strany, ee voennye sily, promyshlennost i torgovlya* [Kashgaria: historical and geographical sketch of the country, its military strength, industries, and trade]. Sankt-Peterburg: Printing house of V.S.Balashev.

7. Isiev, D.A. (1981). *Ujgurskoe gosudarstvo Jettishar (1864-1877)* [The Uyghur state of Yettishar (1864–1877)]. Moscow: Nauka.

8. Vasilev, A.D. (2014). «*Znamya i mech ot padishaha». Politicheskie i kulturnye kontakty hanstv Centralnoj Azii i Osmanskoj imperii (seredina XVI – nachalo XX vv.)* ['The Banner and the sword from the Padishah'. Political and cultural contacts between the Central Asian khanates and the Ottoman empire (Mid-16th – Early 20th Century)]. Moscow: Institute of Oriental Studies of the Russian Academy of Sciences.

9. Charginova, G. (2017). Jetishahar memleketi men Osman imperiyasiniң өzara baylanistari tarixinan [From the History of Mutual Relations Between the State of Yettishahar and the Ottoman Empire]. *KazNU Bulletin: History series*. No 3(86). Pp. 47–55.

10. Mahkamov, A. (2021). *Tariximizning siz bilmagan sahifalari: Xudoyorxon, Yoqubbek, Mirkomilboy* [Unknown Pages of Our History: Khudayar Khan, Yakub Beg, Mirkomilboy]. Tashkent: Zamin nashr.

11. Sefa Fuat, H., Charginova, G. (2023). Osmanli devleti ile Yedişehir devleti (Kaşgar emirliği) arasinda ilişkiler [Relations Between the Ottoman Empire and the State of Yettishahar (Kashgar Emirate)]. *History Studies. International Journal of History*. No 3. Pp. 481-495.

12. Urakov, D.J. (2021). *Turkiston general-gubernatorligining qo‘shni davlatlar bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalari* [The Political and Economic Relations of the Turkestan General-Governorate with Neighboring States]. Tashkent: Lesson press.

13. Xodjayev, A., Qo‘ldoshev, Sh. (2021). *Muhammad Yoqubbek* [Muhammad Yakub Beg]. Tashkent: Navro‘z.

Muallif haqida ma’lumot:

SOBIROV Sardorbek Abdusattor o‘g‘li – Andijon davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi o‘qituvchisi.
E-mail: sobirov88@adu.uz